

QORAQALPOQ DIYORINING MASHHUR BESHTA SHAHRINING BIRI – XO'JAYLI TOPONIMI VA TARIXIY SIVILIZATSIYASI

Xujaniyazov Doston Maratovich

Taxiatosh tumani 16-sonli umumtalim maktabi

Tarix fani o'qituvchisi

Telefon 913072776

Gmail address: dostonxujaniyazov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpog'istonning mashhur beshta shahrining biri, Xo'jayli shahri, uning dastlabki nomlanish toponimlari va tarixiy sivilizatsiyasini ma'lum manbalarga tayanib, tarixiy ketma-ketlikda tadqiqod olib bordik. Tadqiqot davomida X asrda yashagan arab geograflari Ibn Ruste hamda al-Istrahiylar, shuningdek, yana bir arab geografi al-Maqdisiy asarlari, arxeolog G'.Xo'janiyazov, O'.Satbayev va Sh.Payzullayevalarning ilmiy xulosalari o'rganildi. Xo'jayli butun tarixi davomida Shahri, Antakiya, Gyaur toponimlari bilan ma'lum bo'lgan. Xo'jayli nomi esa XVII asrda paydo bo'lib, hududda asosan xo'ja urug'i ko'pchilikni tashkil etganligi uchun berilgan.

Kalit so'zlar: Arxeologiya, sivilizatsiya, toponim, Xo'jayli, Antakiya, Gyaur, Mizdakhan, Buyuk ipak yo'li, Antiox, Shahri, xo'ja, urug'.

Annotation: In this article, we have researched one of the five famous cities of Karakalpakstan, the city of Khojaly, its toponyms and historical civilization based on known sources, in a historical sequence. During the research, the scientific conclusions of the Arab geographers Ibn Ruste and al-Istrahiy, who lived in the 10th century, as well as the works of another Arab geographer al-Maqdisi, archaeologists G. Khojaniyazov, O. Satbayev and Sh. Payzullayeva were studied. Throughout its history, Khojaly was known by the toponyms Shahri, Antakiya, Gyaur. The name Khojaly appeared in the 17th century and was given mainly because the majority of were people were khoja in the region.

Key words: Archeology, civilization, toponym, Khojayli, Antakya, Gyaur, Mizdakhan, Great Silk Road, Antioch, Shahri, Khoja, clan

Ma'lumki, tuprog'imizda hali to'liq o'rganilmagan, yoki o'rganilgan bolsaham bir biriga qarama-qarshi fikrlarga asoslangan, olimlar orasida bahsli munozaralar markazidagi tarixiy obidalarimiz anchagina. Chunki bu keng "ochiq osmon ostidagi muzey"ning tarixiy o'tmishini tiklash, sir-sinoatini to'liq o'rganish oson ish emas. Bu esa soha vakillari bo'lmish mahalliy tarixchi olimlar va arxeologlar oldidagi asosiy vaziyfalarni belgilab beradi.

Mashhur shvetsariyalik mutafakkir Sharl de Bonstetten g'oyasi bilan "ochiq osmon ostidagi muzey" atamasining paydo bo'lishi tarixni real suratlarda aks ettirish uchun xizmat qildi va butun jahon olimlar hamjamiyati diqqatini jalb qildi. Tarixiy obidalarimizni, madaniy merosimizni asrab avaylash, o'rganish, kelgusi avlodga etkazish ma'lum soha vakillarining emas har bir millat, elat vakilining muqaddas burchidir. Mana shunday muqaddas burchimiz va sohamiz odidagi javobgarligimiz uchun kindik qonimiz tomgan tuproq, mashhur beshta shaharning biri, yuqoridagi tarifga mos ochiq osmon ostidagi muzey – Xo'jayli shahri, uning geografik biografiyasi, makon va zamon oralig'idagi toponimi va tarixiy sivilizatsiyasini ma'lum manbalarga suyanib, tarixiy ketma ketlikda tatqiq qilishni niyat qildik.

Xo'jayli Markaziy Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biri hisoblanadi. O'rta asr yozma manbalarida Xo'jayli shahri Mizdakxon nomi bilan mashhur bo'lgan. U haqida X asrda yashagan arab geograflari Ibn Ruste hamda al-Istrahiylar yozib qoldirgan. Shuningdek, yana bir arab geografi al-Maqdisiyning qayd etishicha, Mizdakxon 12 ming feodal qal'alarining markaziy shahri bo'lgan. Shaharning eng qadimiy qismi Gaur qal'a nomi bilan ma'lum bo'lib, u to'qqiz gektardan ortiq maydonga ega tabiiy tepalik sanaladi. IX-XI asrlarda qal'ada yangi qo'rg'on devorlar qad rostlab, hokim saroylari qurilgan. Xo'jaylining tashrif qog'ozi sanalgan Mizdakxon esdaliklar majmuasi hamda unga kiruvchi Mazlumxansuluv mavzoleyi, Shamun Nabi maqbarasi, Jo'mart qassob tepaligi, Erejep xalfa uyi va boshqa esdaliklarham hozirgacha saqlanib qolgan. Shu joydan Xitoy tangalari, O'rta Yer dengizi bo'yi xalqlariga oid chinni buyumlar, Qora dengiz bo'yi buyumlari topilgan. Demak, Mizdakxon Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan. Shaharning yana bir qadimiy nomi Antakiya deb ataladi.

Arxeolog va olimlarning asosan bu atamalar qaysi davrda qo'llanilganligi ustida bahsli fikrlari mavjud. Masalan arxeolog G'ayriddin Xo'janiazov "shaharning eng qadimgi bo'lagi xalq orasida "Gyaur-qala" degan nom bilan malum bo'lib, u to'rt gektardan ortiqroq maydonga ega tabiiy tepalik ustiga miloddan avvalgi IV asrda qurilib qalin devorlar bilan qo'shib, minoralar bilan mustahkamlangan"¹ deb keltirib o'tadi. Undan keyingi atamalar sifatida Mizdakxon va Antakiyani keltirib o'tadi. "Mizdakxon shahri XIII asrning ikkinchi yarmidan tiklangan, ikki tepalik orasida ochiq maydonga yangi shahar quriladi. Mahalliy xalq orasida u "Shahar Antakiya" deb ataladi"² degan so'zlari bilan o'z fikrlarini berib o'tadi.

Bir qancha olim va publitsistlarning tadqiqot xulosalari esa bundan mustasno. 1995-yili Xo'jayli shahrining 2400 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan ilmiy konferensiyaga o'z maqolasini yo'llagan O'.Satbayev "Respublikamizga ma'lum

¹G'. Xo'janiazov, «Asirlerge sirlas bo'lg'an Xo'jeli» Erkin Qaraqalpag'istan 1995-y. 22-aprel.

²G'. Xo'janiazov, «Asirlerge sirlas bo'lg'an Xo'jeli» Erkin Qaraqalpag'istan 1995-y. 22-aprel.

“Bes qala”ning biri bo‘lgan Xo‘jayli arxeologik tadqiqotlarga qaraganda 2400 yillik tarixga ega, dastlab Antakiya keyin Mizdaxkon deb atalgan³ deb keltirib o‘tadi. Berdaq muzeyining direktori Sharigul Payzullayeva “Mizdaxkon tarixiy arxitektura kompleksiga kiruvchi Govur qala oldin “Shahar Antakiya” deb atalgan” deb keltiradi.

Ko‘rib turganingizdek Xo‘jayli shaharning dastlab qanday atalganligi haqida olimlar o‘rtasida bahsli munozaralar mavjud. Bu bahsga 2005-yilda Xo‘jaylilik Hayitboy Abdusodiq ham aralashadi. U o‘zining asarda “birinchidan “Gavur qala” atamasi islom dini bilan bogliq, demak u faqat eramizning VII asrdan keyin qo‘llanilishi mumkin. Ikkinchidan “Antakiya” so‘zi faqatgina Salavkiylardan bo‘lgan Antiox I Sotter va undan keyingi Antioxlar bilan chambarchas bog‘liq, u esa eramizdan avvalgi 280-yillarda tarix sahnasiga chiqqan⁴ deb keltiradi. Unga quyidagi fikrlar bilan Kengesbay Kunnazarov qarshi tezis keltiradi – “Xo‘jaylining dastlabki nomi Shahri undan keyin Antakiya undan keyin Gyaur so‘ng Xo‘jeli deb atalgan”.⁵

Xo‘jayli – mashhur beshta shaharning biridir. Bu yerga odamlarning doimiy makon tutganiga 2400-yildan oshdi, degan ilmiy tasdiqlar mavjud. Xo‘jayli shaharning eng qadimiy nomi Antakiya bo‘lishi ehtimoldan yiroq. Chunki bu shaharning yoshini 2400 yil deb berayotgan deyarli barcha olimlar fikri, miloddan avvalgi 280-yilda taxtga chiqqan Antiox I Sotter bilan bogliq degan xulosadan uzoqlashtiradi. Bunga yana bir qancha sabablar bor: birinchidan Aleksandr Makedonskiy davlati hududiga janubiy Orol boyi hududlari kirmagan, demak, Salavkaga ham meros bo‘lib qolishi mumkin emas, buni qadimiy xaritalardan ham ko‘rish mumkin. Ikkinchidan antik davrda atalgan atama shuncha madaniy qorishmalardan keyin, hech bir yozma manbalarda uchramasdan deyarli ming yil saqlanib qolgan bo‘lishi ehtimoldan uzoq. Xo‘jayli nomi esa XVII asrda paydo bo‘lgan. Keltirilgan fikr va manbalardan shuni xulosa qilish mumkinki tarixiy ketma-ketlikda Shahri, Antakiya, Gaur, Mizdakhan Xo‘jayli toponomlari bilan ma‘lum bo‘lgan. Xo‘jaylining ustidan Buyuk Ipak yo‘li karvonlari Sharq davlatlariga betinim o‘tib, shu vaqtlardan mahalliy aholi ulardan yuqori madaniyatni, savdo-sotiqni o‘rgangan. Xojaeli atamasi esa shaharda xo‘ja urug‘i ko‘pchilikni tashkil etganligi uchun berilgan.

1221-yilda Chingizxon istilosi Xorazm yurtiga katta talafot keltirib, mintaqadagi xalq turmushini izdan chiqarib yubordi. Xo‘jayli (Mizdakhan) ham ma‘lum vaqt rivojlanishdan to‘xtab qoldi.

³ Satbayev O. “2400 jilliq tariyxqa iye qala” Erkin Qaraqalpag‘istan 1995-y. 28-yanvar.

⁴ Xayitboy Abdusodiq – “Aslim, ASLim Xo‘ja eli”. Nokis. Qaraqalpag‘istan 2005. 9-bet

⁵ K.Kunnazarov – “Bes Qala” N. Bilim 2010. 43-bet.

XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab G'arbni va Sharqni bog'lovchi Buyuk Ipak yo'li faoliyati tiklandi va Xo'jaylida hayot o'z maromiga qayta tiklandi. Shu davrlarda Xitoy, Hindiston, Eron, Suriya dalatlari, Volga bo'yi va Qora dengiz sohillaridagi shaharlarning savdogarlari, sayohatchilari shu joyda to'xtab o'tgan. Shahar aholisi zargarlik, to'qimachilik, qurilish, dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilik kabi 60 ga yaqin har xil kasblar bilan shug'ullangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. G'. Xo'janियazov, «Asirlerge sirlas bo'lg'an Xo'jeli» Erkin Qaraqalpag'istan 1995-y.
2. Satbayev O. «2400 jilliq tariyxqa iye qala» Erkin Qaraqalpag'istan 1995-y.
3. Xayitboy Abdusodiq – “ Aslim, ASLim Xo'ja eli”. Nokis. Qaraqalpag'istan 2005.
4. K.Kunnazarov – “Bes Qala” N. Bilim 2010.
5. D. Belosarov – “Xo'jeli” Nokis 2011